

**“Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” respublika tanlovini tashkil etish
va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “Ona tili” (keyingi o‘rinlarda – ona tili) hamda ta’lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining “O‘zbek tili” (keyingi o‘rinlarda – o‘zbek tili) fani o‘qituvchilari o‘rtasida “Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida tashkil etiladi.

3. Tanlov O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hamkorligida o‘tkaziladi.

4. Tanlovni tashkil etilishi bilan bog‘liq barcha jarayonlar respublika Tashkiliy qo‘mitasi tomonidan yo‘lga qo‘yiladi.

5. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash va rag‘batlantirish bilan bog‘liq masalalar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

6. Tanlovning nizomi, tanlov jarayonlari va natijalari Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining rasmiy veb-sayti: www.uzedu.uz orqali e’lon qilinadi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

7. Tanlovning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

– ona tili va o‘zbek tili fanlari o‘qituvchilarining ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash hamda ish tajribasini ommalashtirish;

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilarning o‘qitish metodikasini takomillashtirish va ommalashtirishga qaratilgan ijodiy ishlarini qo‘llab-quvvatlash;

– **ona tili** (milliy sinflarda), **o‘zbek tili** (davlat tili sifatida) fanlarini o‘qitishda eng samarali metodlarni qo‘llash orqali o‘zbek tilining davlat tili va ona tili sifatidagi mavqeyini oshirish;

– maktab jamoasida vatanparvarlikni, tilni milliy qadriyat sifatida asrab-avaylashga befarq bo‘lmaslikni targ‘ib qilish.

III. Tanlovni o‘tkazish muddati va bosqichlari

8. Tanlovni o‘tkazish muddati:

2023-yil 22-sentabrdan 20-oktabrga qadar.

9. Tanlov quyidagi bosqichlarda o‘tkaziladi:

1-bosqich tuman (shahar): taqdimotlarni qabul qilish 22-sentabrdan 29-sentabrga qadar davom etadi. Taqdimotlar Hakamlar hay’ati tomonidan 3-6-oktabr kunlari ko‘rib chiqiladi va g‘oliblar aniqlanadi.

2- bosqich (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar):
birinchi bosqichda g‘olib deb topilgan taqdimotlar Hakamlar hay‘ati tomonidan 9-10-oktabr kunlari ko‘rib chiqiladi va g‘oliblar aniqlanadi.

3- bosqich: 20-oktabrga qadar Toshkent shahrida o‘tkaziladi.

Tanlov g‘oliblarini e‘lon qilish va taqdirlash 21-oktabr O‘zbek tili bayrami arafasida amalga oshiriladi.

IV. Tanlov yo‘nalishlari va ishtirok etish tartibi

10. Tanlovga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha taqdimotlar qabul qilinadi:

- ona tili fanidan;
- o‘zbek tili fanidan.

11. Tanlovda vazirlik tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining ona tili va o‘zbek tili fani o‘qituvchilari ixtiyoriy ravishda ishtirok etishlari mumkin. Har bir o‘qituvchi faqat bitta (ona tili yoki o‘zbek tili) fandan onlayn ro‘yxatdan o‘tish va qatnashish huquqiga ega.

12. 2023-yil 22-sentabrdan 29-sentabr (29-sentabr kuni soat 18:00)ga qadar tanlovda ishtirok etish istagida bo‘lgan o‘qituvchilar tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limlari e‘lon qilgan **maxsus bot** orqali ro‘yxatdan o‘tadi hamda taqdimotlarini video formatda joylashtiradi. O‘zi haqida to‘g‘ri va to‘liq ma‘lumot taqdim etmagan ishtirokchilar tanlovda ishtirok etmaydi.

13. Tanlovning birinchi bosqichida ishtirokchilar soni chegaralanmaydi. Hududiy maktabgacha va maktab ta‘limi boshqaruv idoralari va vazirlikka bevosita bo‘ysunuvchi umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘qituvchilari ta‘lim muassasasi joylashgan tuman (shahar)da birinchi bosqichidan boshlab ishtirok etadi.

V. Videotaqdimotga qo‘yiladigan talablar

14. Bu turda o‘qituvchilar *shaxsiy ish tajribasi misolida* “**Men tavsiya etaman...**” nomli videotaqdimot yoki taqdimot (slyayd)lari bilan ishtirok etadi. Videotaqdimotning davomiyligi 5-7 daqiqagacha bo‘lishi kerak. Ona tili va o‘zbek tili yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlangan videotaqdimot 50 ballik tizimda baholanadi. Taqdimotning birinchi kirish qismida qatnashchining quyidagi ma‘lumotlari keltirilishi zarur:

“Yilning eng yaxshi o‘zbek tili o‘qituvchisi” tanloviga	
F.I.Sh.	
Viloyat, tuman	
Ish joyi va telegrami mavjud telefon raqami	
Tanlov yo‘nalishi (ona tili yoki o‘zbek tilidan bittasini yozish kerak)	

15. Texnik jihatdan:

- har qanday ixtiyoriy qurilmadan foydalangan holda tasvirga olinishi;
- davomiyligi 5-7 daqiqagacha;
- Microsoft Power Point dasturida;
- slyaydlar soni 10 betda;
- matnlar Times New Roman, 24 shriftida;
- ranglardan, rasm va chizmalardan foydalanishda sifat va qulaylikka e‘tibor berilishi kerak.

16. Mazmun jihatdan:
- tinglab tushunishga doir ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi usullarning berilganligi;
 - nutq so‘zlash, gapirishga doir ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi usullarning berilganligi;
 - o‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi usullarning berilganligi;
 - har bir metod, texnologiyaga izoh, sharh, tushuntirishlarning berilganligi;
 - har bir metod, texnologiyani *darsning qaysi qismida* (uyga vazifa so‘rash-berishda, yangi mavzu bayonida, mustahkamlash, takrorlash va boshq.) foydalanishga tavsiya berilganligi;
 - har bir metod va texnologiyani *qaysi mavzularda va qaysi sinflarda* qo‘llashga tavsiyaning mavjudligi, ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanilganligi hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlar bilan boyitilganligi;
 - tavsiyalarning o‘ziga xosligi, yangiligi, samaradorligi, qo‘llashda qulayligi;
 - grammatik, orfografik, uslubiy hamda tinish belgilari bilan bog‘liq xatoliklarning bo‘lmasligi;
 - taqdimotda faqat matndan foydalanmasdan, mavzuni yoritishda zamonaviy shakl: animatsion, infografika va diagrammalardan foydalanilganligi;
 - taqdimotga mazmun va shakl jihatdan kreativ yondashuvi.

VI. Tanlovining birinchi va ikkinchi bosqichlari uchun baholash mezonlari

T/r	Mazmuniga qo‘yiladigan talablar	Ball
1.	Tinglab tushunishga doir ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi usullar uchun	0-5
2.	Nutq so‘zlash, gapirishga doir ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi usullar uchun	0-5
3.	O‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi usullarning berilgani uchun	0-5
4.	Har bir metod, texnologiyaga izoh, sharh, tushuntirishlarning berilgani uchun	0-5
5.	Har bir metod, texnologiyani <i>darsning qaysi qismida</i> (uyga vazifa so‘rash-berishda, yangi mavzu bayonida, mustahkamlash, takrorlash va boshq.) foydalanishga tavsiya berilgani uchun	0-4
6.	Har bir metod va texnologiyani <i>qaysi mavzularda va qaysi sinflarda</i> qo‘llashga tavsiyaning mavjudligi uchun	0-4
7.	Tavsiyalarning o‘ziga xosligi, yangiligi, samaradorligi, qo‘llashda qulayligi uchun	0-5
8.	Grammatik, orfografik, uslubiy hamda tinish belgilari bilan bog‘liq xatoliklarning bo‘lmasligi	0-3
9.	Taqdimotda faqat matndan foydalanmasdan, mavzuni yoritishda zamonaviy shakl: animatsion, infografika va diagrammalardan foydalanilganligi	0-3
10.	Taqdimotga mazmun va shakl jihatdan kreativ yondashuvi uchun	0-4
Texnik jihatdan talablar		

1.	<ul style="list-style-type: none"> - taqdimotda slaydlar soni 10 tagacha; - taqdimotda berilgan matnlar 24 shriftdan kam bo'lmashligi; - taqdimotda ranglardan foydalanish mezonlariga, mavzuga mos rasm va chizmalardan, audio va matndan foydalanishda sifat va qulaylikka e'tibor berilishi; - rasmlar va turli tasvirlar sifatli va kerakli o'lchamda, aniq shaklda matnga mos bo'lishi; - muallif shaxsiy ma'lumotlarini kiritishi; - audio fon beriladigan bo'lsa, o'qituvchining o'z ovozi bilan foydalanishi ham hisobga olinadi. 	0-7
Jami		50 ball

***Eslatma:** Taqdimotda amalda mavjud, urfga kirgan, ommalashgan metodlardan to'la foydalanilgan, plagiatga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ishtirokchining bali nollashtiriladi. Agar bunday holat juda kam holatda uchrasa, Hakamlar hay'ati tomonidan ballar tegishli pasaytiriladi.*

VII. Tanlovning birinchi bosqichini o'tkazish tartibi

17. Tanlovni birinchi bosqichini o'tkazish mas'uliyati tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

18. Tanlovning birinchi bosqichi quyidagi tartibda 1 ta shart asosida o'tkaziladi: joriy yilning 22-sentabr sanasiga qadar **maxsus bot** tashkil etiladi;

22-sentabrdan 29-sentabr (29-sentabr kuni soat 18:00)ga qadar videotaqdimotlar qabul qilinadi;

3-6-oktabr kunlari Hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi, ishtirokchilar orasidan eng yuqori ball to'plagan 1-, 2-, 3- o'rinni egallagan g'oliblar aniqlanadi.

19. Tanlov natijalari tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi yig'ilishida muhokama qilinadi hamda I o'rinni egallagan 2 nafar (1 nafar ona tili va 1 nafar o'zbek tili) g'olibning navbatdagi bosqichda ishtiroki to'g'risida qaror qabul qilinadi.

20. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari tomonidan tanlov g'oliblarining olgan ballari haqidagi ma'lumot hamda videotaqdimotlar hududiy maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga 6-oktabrda taqdim etiladi.

VIII. Tanlovning ikkinchi bosqichini o'tkazish tartibi

21. Tanlovning ikkinchi bosqichini o'tkazish Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari zimmasiga yuklatiladi.

22. Tanlovning ikkinchi bosqichi quyidagi tartibda o'tkaziladi:

tanlovning birinchi bosqichi g'oliblarining taqdimotlari 9-10-oktabr kunlari Hakamlar hay'ati tomonidan baholanadi. Ishtirokchilar orasidan eng yuqori ball to'plagan 1-, 2-, 3- o'rinni egallagan g'oliblar aniqlanadi.

23. Tanlov natijalari hududiy boshqarmalarning yig'ilishida muhokama qilinadi hamda I o'rinni egallagan 2 nafar g'olibning (1 nafar ona tili va 1 nafar o'zbek tili) respublika bosqichida ishtiroki to'g'risida qaror qabul qilinadi.

24. Hududiy boshqarmalar tomonidan ikkinchi bosqich g'oliblarining olgan ballari haqidagi ma'lumot va videotaqdimotlar vazirlikka 10-oktabrda taqdim etiladi.

IX. Tanlovining uchinchi bosqichi uchun baholash mezonlari
Esseni baholash mezonlari

T/r	Mazmuniga qo‘yiladigan talablar	Ball
1.	Esse talab darajasida tuzilgan, qismlarga to‘g‘ri bo‘lingan, xatboshilarga to‘g‘ri ajratilgan, fikr bayonida mantiqiy izchillik saqlangan bo‘lsa;	0-5
2.	Essening kirish qismi qiziqarli, hayotiy voqelikka asoslangan, asosiy qism mazmuniga mos bo‘lsa;	0-4
3.	Mavzuni yaxshi tushungan holda uni to‘liq yoritgan bo‘lsa, tezis (asosiy g‘oya) mavzuga mos tanlangan, tezisga aloqador shaxsiy fikr-mulohaza bildirgan bo‘lsa;	0-6
4.	4 va undan ortiq fakt keltirilgan, fakt va dalillar mavzuga muvofiq, o‘z o‘rnida qo‘llangan bo‘lsa;	0-5
5.	Tanlangan mavzuga tanqidiy-tahliliy munosabatini bildirib, muammolarning yechimi yuzasidan o‘z fikrini ifodalagan bo‘lsa;	0-5
6.	Esse adabiy til me‘yorlariga mos yozilgan, kirish so‘z va birikmalar o‘z o‘rnida qo‘llangan, tilning sofliqi saqlangan, badiiy tasvir vositalaridan o‘rinli foydalanilgan bo‘lsa;	0-5
7.	Mavzuni bayon etishda va atamalarni qo‘llashda xatoliklarga yo‘l qo‘yilmagan, foydalanilgan ilmiy manbalardan havolalar berilgan bo‘lsa;	0-5
8.	Esseni xulosalay olgan va uslubi o‘ziga xos bo‘lsa.	0-5
Jami		40 ball
T/r	Savodxonligiga qo‘yiladigan talablar	Ball
1.	esse husnixat bilan yozilib, hech qanday xatosi bo‘lmasa;	10
2.	1 ta imlo, 1 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	9
3.	1 ta uslubiy, 1 ta imlo, 1 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	8
4.	1 ta uslubiy, 2 ta imlo, 2 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	7
5.	2 ta uslubiy, 3 ta imlo, 3 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	6
6.	2 ta uslubiy, 4 ta imlo, 4 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	5
7.	3 ta uslubiy, 5 ta imlo, 5 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	4
8.	3 ta uslubiy, 6 ta imlo, 6 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	3
9.	4 ta uslubiy, 7 ta imlo, 7 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	2
10.	5 ta uslubiy, 8 ta imlo, 8 ta ishoraviy xato bo‘lsa;	1
Jami		10 ball

Izoh. Esseni tekshirish jarayonida yuqoridagi shakliy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholash mezonlarga mos kelmagan hollarda ballar Hakamlar hay‘atining maxsus xulosalarini umumlashtirish orqali qo‘yiladi.

Dars mashg'ulotini baholash mezonlari

	Ko'rsatkichlar	Ball
Kommunikativlik	darsni o'qituvchi tomonidan og'zaki va yozma nutq me'yorlariga, rioya qilgan holda tashkil etganligi;	0-2 ball
	nutq madaniyati va muomala odobiga rioya qilinganligi, darsda do'stona munosabatni o'rnatganligi;	0-2 ball
	o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchilarning hamkorlikdagi o'quv faoliyatini tashkil etganligi.	0-2 ball
Nutqiy kompetensiyaning singdirilishi	tinglab tushunish kompetensiyasi;	0-2 ball
	o'qib tushunish kompetensiyasi;	0-2 ball
	yo'zish ko'nikmasi;	0-3 ball
	gapirish ko'nikmasi,	0-3 ball
Axborot bilan ishlash va AKTdan foydalanish	dars jarayonida asosiy va qo'shimcha rasmiy manbalardan samarali foydalanganligi;	0-3 ball
	o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil etishda zaruriy ma'lumot va axborotlarni to'g'ri tanlanganligi, o'quvchining yosh xususiyatlariga moslashtirilganligi;	0-2 ball
	o'quvchilarda axborot xavfsizligiga rioya etgan holda elektron axborot ta'lim resurslaridan foydalanishga qiziqish va motivatsiyani rivojlantirganligi.	0-3 ball
O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi	o'z ustida mustaqil ishlash, bilim olishga intilishi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va intellektual kompetensiyasini rivojlantirish olishi;	0-2 ball
	o'z-o'zini boshqarish hamda xatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish faoliyatini rejalashtirish olishi;	0-2 ball
	hozirgi progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lishi va ulardan foydalana olishga intilishi;	0-2 ball
Ijtimoiy -emotsional va fuqarolik kompetensiyasi	o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional holatini his eta olganligi, o'quvchilarning o'quv faoliyatida ijobiy va ijodiy muhitni shakllantirish olishi;	0-2 ball
	dars jarayonida huquqiy me'yorlarga rioya qilinganligi, o'zini-o'zi boshqara olishi va mustaqil qaror qabul qilish olishi;	0-2 ball
	o'quvchilarda ekologik madaniyat va sog'lom turmush tarziga amal qilish ko'nikmalarini targ'ib qilganligi;	0-2 ball
	dars jarayonida o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini rivojlantirishga e'tibor berilganligi.	0-2 ball
	vaqtning to'g'ri taqsimlanganligi va undan unumli foydalanganligi;	0-3 ball

Tashkiliy - uslubiy faoliyat	tanlangan metod va usullarini mohirona qoʻllaganligi hamda natijaviylikning taʼminlanganligi;	0-3 ball
	oʻquvchilar oʻquv natijalarining shaffoflik, halollik hamda adolatlilik tamoyillari asosida toʻgʻri baholanganligi;	0-3 ball
	dars jarayonida tanlangan axborot taʼlim resurslaridan unumli va samarali foydalanganligi.	0-3 ball
Jami		50 ball

X. Tanlovning uchinchi bosqichini oʻtkazish tartibi

25. Tanlovning uchinchi bosqichi respublika Tashkiliy qoʻmitasi masʼulligida tashkil etiladi.

26. Tanlovning uchinchi bosqichi 2 ta shart asosida oʻtkaziladi va ishtirokchilar barcha shartlarda toʻliq qatnashadi.

Birinchi shart – esse yozish. Bunda:

- Tashkiliy qoʻmita tomonidan tayyorlangan mavzu eʼlon qilinadi;
- esse yozishda taʼlimdagi islohotlarga ahamiyat berilishi ustuvor hisoblanadi;
- esse yozish uchun 2 (akademik) soat vaqt beriladi;
- ijodiy ishdagi soʻzlar soni 250 tadan kam boʻlmasligi talab etiladi;
- ushbu shart 50 ballik mezon asosida baholanadi.

Ikkinchi shart – **“Har bir kun – bu imkoniyat, har bir kun – bu kelajak uchun poydevor”** shiori ostida dars mashgʻuloti oʻtish. Bunda:

ishtirokchilarning dars mashgʻuloti oʻtish ketma-ketligi, dars mavzulari, mashgʻulot oʻtkaziladigan sinflarni (parallel) qurʼa tashlash yoʻli bilan tanlab olinadi: qurʼa tashlash esa ushbu shartdan bir kun avval oʻtkaziladi. Ishtirokchilar mashgʻulot uchun dars ishlanmasi, taqdimot va boshqa metodik mahsulotlar ishlab chiqishlari ham mumkin. Dars mashgʻuloti uchun 45 daqiqa vaqt beriladi, 50 ballik mezon asosida baholanadi.

27. Tanlovning respublika bosqichida tanlov qatnashchilarining ishtiroki videotasvirga olinadi. Alohida tashkillashtirilgan joyda Maktabgacha va maktab taʼlim vazirligi hamda hududiy boshqarmalar masʼullari, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalarining vakillariga tanlov jarayonlarini toʻgʻridan toʻgʻri kuzatib borish imkoniyati yaratiladi.

28. Tanlovning respublika bosqichi yakunida ishtirokchilar orasidan 2 nafar (ona tili va oʻzbek tili) birinchi oʻrinni egallagan **“Yilning eng yaxshi oʻzbek tili oʻqituvchisi”** gʻolibi hamda ikki nafardan 2-, 3-oʻrinni egallagan sovrindorlar aniqlanadi.

XI. Hakamlar hayʼati

29. Tanlovning barcha bosqichlarini shaffof, xolisona, adolatli oʻtkazish maqsadida mutaxassislardan iborat Hakamlar hayʼati tarkibi tuziladi va Tashkiliy qoʻmita tomonidan tasdiqlanadi.

30. Hakamlar hayʼati raisi hayʼat aʼzolari orasidan ochiq ovoz berish yoʻli bilan saylanadi.

31. Hakamlar hayʼati aʼzolari ishtirokchilarning ona tili va oʻzbek tili fanlari boʻyicha videotaqdimoti va pedagogik mahoratini adolatli baholaydi, baholash mezoni asosida olgan baholarini umumlashtirgan holda tanlov gʻoliblarini aniqlab beradi.

32. Hakamlar hay'ati a'zolarining xulosalari qaror bilan rasmiylashtiriladi. Ishtirokchilarning faoliyatini Hakamlar hay'atining har bir a'zosi baholaydi va Sanoq komissiyasiga taqdim etadi.

33. Sanoq komissiyasi Hakamlar hay'ati a'zolari o'rtasida qur'a tashlash yo'li bilan belgilanadi.

34. Sanoq komissiyasi ballarni qo'shib, o'rtacha ballni chiqaradi va natijani e'lon qiladi.

35. Tanlov jarayonida Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati va Appelyatsiya komissiyasi a'zolarining yaqin qarindoshlari yoki ish joyidan o'qituvchilar ishtirok etayotganligi aniqlansa, bu holat bo'yicha dalolatnoma tuziladi hamda ular Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati, Apellyatsiya tarkibidan chiqariladi.

XII. Tanlovning Apellyatsiya komissiyasi

36. Tanlov ishtirokchilari tomonidan bildirilgan yozma ariza va e'tirozlarni ko'rib chiqish uchun Apellyatsiya komissiyasi tarkibi tasdiqlanadi. Ishtirokchilarning tanlov jarayoni va shartlari bo'yicha bildirgan yozma arizasi joyida, shu kunning o'zida faqat ariza beruvchi o'qituvchi ishtirokida (boshqalarning bu jarayonga aralashuviga yo'l qo'yilmaydi) komissiya a'zolari tomonidan ko'rib chiqiladi hamda xulosalar rasmiylashtiriladi.

XIII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

37. Tanlovning birinchi bosqichida 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan g'oliblar (*ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari hamda ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari o'rtasida alohida*) aniqlanadi. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi va kasaba uyushmalarining faxriy yorlig'i, esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

38. Tanlovning ikkinchi bosqichida 1-, 2-, 3-o'rinlarni egallagan g'oliblar (*ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari hamda ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilari o'rtasida alohida*) aniqlanadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari va O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi hududiy kengashlarining faxriy yorlig'i va esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

39. Tanlovning uchinchi respublika bosqichi yakunlariga ko'ra g'oliblar (2 nafardan) quyidagi tartibda taqdirlanadi:

1-o'ringa (2 nafar) "Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" I darajali diplomi, 25 mln. so'm pul mukofoti;

2-o'ringa (2 nafar) "Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" II darajali diplomi, Monoblok;

3-o'ringa (2 nafar) "Yilning eng yaxshi o'zbek tili o'qituvchisi" III darajali diplomi, Noutbuk.

40. Tanlovning qolgan boshqa ishtirokchilari ham Hakamlar hay'atining takliflariga ko'ra turli nominatsiyalar bo'yicha taqdirlanishlari mumkin.

41. Tanlovning respublika bosqichida ishtirok etgan o'qituvchilarning eng yaxshi taqdimotlari O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalari va elektron ta'lim resurs portallariga joylashtiriladi.

42. Tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchidan tashqari uni qo'llab-quvvatlovchilarning tanlov jarayonlariga, Tashkiliy qo'mita, Hakamlar hay'ati va Apellyatsiya komissiyasi a'zolari faoliyatiga xalaqit berishi, tanlov natijalariga asossiz aralashuvlari man etiladi.

43. Mazkur Nizom talablariga rioya qilmagan ishtirokchilar Hakamlar hay'ati tomonidan tanlovdan chetlashtirilib, bu haqida hay'at raisi va a'zolari tomonidan imzolangan dalolatnoma tuziladi.

44. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.